



Natijalar shuni ko’rsatadiki, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ekologik tafakkurni shakllantirishda 40–47% gacha ijobiy dinamikani ta’minlaydi. Bu esa o’quvchilar tafakkurining tanqidiylik, tahliliy fikrlash va ekologik mas’uliyat jihatlarida kuchayishiga olib keladi [6].

Ekologik tafakkurni shakllantirish jarayonida o’quvchi faolligini oshiruvchi raqamli vositalar, masalan, “EcoSim”, “Green Learning” kabi onlayn platformalar samarali natijalar berdi. Shuningdek, STEAM-integratsiya asosidagi darslarda ekologik tushunchalar texnologik, muhandislik va badiiy yo’nalishlar bilan uyg’unlashtirildi.

Hozirgi davrda ekologik muammolar insoniyat uchun global tahdid sifatida namoyon bo’lib, ularni yechishda ta’lim tizimining o’rni muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki, o’quv jarayonida ekologik tafakkurni shakllantirishning samarali vositalari sifatida interfaol metodlar, loyihaviy ta’lim, raqamli texnologiyalar va tabiat qo’ynidagi mashg’ulotlar muhim rol o’ynaydi.

Analiz natijalariga ko’ra, an’anaviy metodlar bilan solishtirganda zamonaviy pedagogik yondashuvlar o’quvchilarning ekologik tafakkurini 40-47% gacha oshirishga imkon beradi. Shu orqali o’quvchilar tanqidiy fikrlash, tahliliy yondashuv va ekologik mas’uliyat kabi ko’nikmalarni rivojlantiradi. Interfaol metodlar va raqamli vositalar, jumladan “EcoSim” va “Green Learning” kabi onlayn platformalar, o’quvchilarning faol ishtirokini rag’batlantiradi va ekologik tushunchalarni amaliy faoliyat bilan uyg’unlashtirish imkonini beradi.

STEAM-integratsiya asosidagi darslar esa ekologik tushunchalarni texnologik, muhandislik va badiiy yo’nalishlar bilan bog’lab, ta’lim jarayonining sifatini yanada oshiradi. Shu bilan birga, loyihaviy va interfaol yondashuvlar o’quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi, ekologik kuzatuvchanlikni oshiradi va ekologik ongni yanada mustahkamlaydi.

Umuman olganda, ekologik ta’limni innovatsion metodlar bilan uyg’unlashtirish nafaqat o’quvchilarda ekologik tafakkur va mas’uliyatni shakllantirish, balki barqaror ekologik madaniyatni yaratishning muhim garovi hisoblanadi. Shu bois, O’zbekiston ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni joriy etish ekologik tarbiya va ongni rivojlantirishning asosiy yo’nalishi sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, ekologik tafakkurni shakllantirishda zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalar muhim o’rin tutadi. Interfaol yondashuvlar o’quvchilarda ekologik tafakkur, mas’uliyat, kuzatuvchanlik va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Shunday qilib, ekologik ta’limni innovatsion metodlar bilan uyg’unlashtirish O’zbekiston ta’lim tizimida barqaror ekologik madaniyatni shakllantirishning muhim garovi bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati.

1. Abdullayeva D. Ekologik ta’lim va tarbiyaning zamonaviy muammolari. Toshkent: Fan, 2022.
2. Axmadjonov M., Karimov A. O’zbekiston ta’lim tizimida ekologik tarbiya konsepsiyasi. Pedagogika jurnali, №4, 33–38, 2021.
3. Berdiyev O. Interfaol ta’lim texnologiyalarining samaradorligi. Samarqand: TDPU nashriyoti, 2020.
4. Cottrell S. Teaching critical thinking in environmental education. London: Routledge, 2019.
5. Davletova L. Raqamli ta’lim texnologiyalari va ekologik madaniyat. Toshkent: Innovatsiya, 2023.
6. Kadirova N. Ekologik tafakkur va o’quvchi shaxsini rivojlantirish. Ta’lim, 2022.

YOSHLARNING AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI SAMARALI FOYDALANISHI

G’ofurjonova Muslima Umid qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyot yo’nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: B. A. Tillayev

Tarixiy va falsafiy fanlar kafedrasi katta o’qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada bugungi jamiyatda axborotning tutgan o’rni, uning shakllanishi va iste’molchisi sifatida yoshlarning axborot ko’nikmalari, axborot olishdagi muammolari va ularni bartaraf etishda talab etiladigan ko’nikmalar haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so’zlar: Yoshlar, texnologiya, axborot almashinuvi, virtual.



ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ МОЛОДЕЖЬЮ

Аннотация: В статье представлена информация о роли информации в современном обществе, её формировании и информационных навыках молодёжи как потребителей, проблемах в получении информации и навыках, необходимых для их преодоления.

Ключевые слова: молодёжь, технологии, обмен информацией, виртуальность.

EFFECTIVE USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES BY YOUTH

Abstract: The article provides information about the role of information in today's society, its formation and information skills of young people as consumers, problems in obtaining information and the skills required to overcome them.

Keywords: Youth, technology, information exchange, virtual.

Bugungi kun yoshlari hayotini texnologiya va virtual olam shunchalik egallab olganki, uning ta’siri ostida hatto maktab ta’lim tizimi ham shunga moslashib bormoqda. Sababi, zamonaviy pedagog o’z navbatida bolalarning mashg’ul bo’layotgan mashg’ulotlari haqida to’liq tasavvur etishi va o’z navbatida shu orqali undan himoya qilish yoki targ’ib qilish xususiyatini shakllantiradi. Axborot almashinuvida ishtirokchi bo’lgan yoshlarning foydali axborotlardan ko’ra vayronkorlik yoki salbiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi axborotlardan foydalanishga intilishi ko’p bo’lishi oqibatida ularning to’lig’icha onlayn muhit shakllantirib o’zlari uchun alohida kontent shakllantirishi mavjud muammolarni yanada rivojlantirib bormoqda. O’z navbatida ularning fikriy irodasida virtuallik va real hayot chegarasini aniq me’zonlar bilan ajratib olish ko’nikmasi mavjud emas. Kattalar xordiqqa bag’ishlangan vaqtidan ish vaqtni ajratishga majbur bo’layotgan bir paytda, yoshlar xordiqni ish vaqti va maktab muhitiga olib kirishga urinmoqdalar. Garchi yoshlar, ayniqsa shahar yoshlari, bolalikdanoq kundalik hayotda texnologiyalardan foydalanishga ko’nikkan bo’lsalar-da, zamonaviy yoshlar - bu hodisa bilan to’qnashayotgan birinchi avlod. Ularda media bilan o’zaro ta’sirlashish va atrofdagi narsalarni idrok etish tug’ma qobiliyati yo’q.[1]

Hozirgi davr shaxsi media hayotga ko’nikib borayotgan bo’lsa, XXI asr yoshlari o’z navbatida shuning ichida katta bo’lmoqda va shu sababli ularning hayotini media dunyo, yoki virtual olamsiz tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun bugungi kun pedagogikasida ularni media va virtuallikdan cheklash emas, balki, undan to’g’ri foydalanish xususiyatini shakllantirishga e’tibor qaratmoqda. Raqamli madaniyat muhitida tug’ilgan va Internet bilan katta bo’lgan yoshlarning ushbu madaniyat doirasida o’zini tutishi kompyuterlar, internet va raqamli o’yinlar bilan yetuk yoshga yetganda tanishganlarga qaraganda o’zgacha. Yosh media foydalanuvchilari vizual va kommunikativ madaniyatning yangi toifasi vakillaridir. Yoshlar, moda haqidagi blogni yuritayotgan o’spirin moda olamiga o’z ta’sirini ko’rsata olishiga yoki yosh musiqachi turli ijtimoiy kontentlar orqali dunyoga mashhur bo’lib ketishi mumkinligiga ishonadi. Ular uchun «mashhur insonga aylanish» o’zini namoyon qilish hamda shu orqali tor yoki keng doiradagi, ba’zan xalqaro miqyosdagi foydalanuvchilar qo’llab-quvvatlashi va e’tirofiga sazovor bo’lishdan iboratdir. Ijtimoiy tarmoqlar orqali Yoshlar ayni damda o’zidan olisda bo’lgan yaqinlari bilan muloqotda bo’lish va yangi do’stlar orttirishidan tashqari Internetda o’zini turli ijtimoiy rollarda sinab ko’rishi mumkin. Uyatchan va kamgap inson tarmoqda ochiq va sergap bo’lishi, o’zlashtirish darajasi past o’quvchi onlayn o’yinlarda o’zini aqlli strateg va harbiy qo’mondon sifatida va yana ko’plab ko’rinishda namoyon qilishi mumkin. Virtuallikdagi – qahramonlikning tugallanish nuqtasi bo’lgan real hayotda to’qnash kelgan taqdirda ularning hayoloti bilan reallik umuman mos kelmasligi ularni hatto virtuallikda qolish istagini kuchaytiradi. Shuningdek, mafkuraviy immuniteti to’g’ri shakllangan va o’zini munosib tuta oluvchi yoshlar guruhida ko’plab yoshlar tarmoqdagi do’stlari bilan real hayotda ham uchrashib turadi.[2]

Kurslarni integratsiyalashtirish ta’limning yangi mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan yana bir g’oya o’quvchilarda, dunyoni yaxlit tasavvur qilish layoqatini rivojlantirishda umumlashtiruvchi, dunyoqarashni shakllantirish imkonini beruvchi integrativ fanlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’limni axborotlashtirish o’quvchilarni o’qitish jarayonida hisoblash texnikasi va axborot texnologiyalaridan ommaviy va keng foydalanish bilan bog’liq bo’lib, ta’limni axborotlashtirish oxirgi o’n yillikda keng tarqaldi. Bunga o’z navbatida zamonaviy video-radio texnika va komputerlarning ta’lim tizimida qo’llanilishi mumkin bo’lganligi hamda foydalanish nisbatan oddiyligi asosiy sabab hisoblanadi.



Globallashayotgan jamiyatda axborot hatto xalqlararo va davlatlararo munosabatlarda katta ahamiyat kasb etadi. Ya’ni u jahon hamjamiyati hayotida ham ijobiy, ham salbiy kuch sifatida namoyon bo’lishi mumkin. Shu ma’noda texnikaviy-texnologik sohada katta imkoniyatga ega bo’lgan mamlakatlar qulay sharoitga ega bo’ladilar. Bu esa hatto mamlakatlar o’rtasida yoshlarni buzg’unchi yoki bunyodkor shaxs sifatida shakllantirishda manfaat jihatidan o’ziga tegishli qilib tarbiyalash istagini oshiradi va bu mamlakatlararo mafkuraviy kurash shaklini ham namoyon etadi. Shunga ko’ra ko’pgina davlatlarda globallashuvga qarshi harakatlar yuzaga kelmoqda, ular yagona jahon uyg’unlashgan axborot maydonini tuzishni rad etmoqdalar.

XX asr oxirlariga kelib, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va Internetning yartilishi natijasida axborot uzatuvchi soha bo’lmish jurnalistikaning mahsulot tayyorlash jarayonida mislsiz o’zgarishlar ro’y berdi. Agar ilgari bizning tasavvurimizda telejurnalist kasbi ko’rinishida televideniyaning ko’chma television stansiyalari jamlangan katta maxsus avtobuslar, yelkada bazo’r turadigan og’ir videokameralar, qo’pol chiroq uskunalar yoki radio jurnalistning o’zi bilan ko’tarib yuradigan haybatli ovoz yozish uskunalar ko’z oldimizga kelgan bo’lsa, internet jurnalistika paydo bo’lishi va rivojlanishi bilan jurnalist ijodi mahsulotini yaratishda ishchi kuchining qisqarishi, salmoqli mablag’ va vaqtning tejallishiga imkoniyat paydo bo’ldi.[3]

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kun yoshlari taraqqiy etgan texnologiyalar olamida cheksiz takliflar chegarasida mavjuddir. Ularning axborot sintez xususiyati mavjudlik darajasiga ko’ra axborotdan foydalanish doirasini belgilaydi. Mazkur tanlov ularning hayotiga ta’sir o’tkazishidan tashqari jamiyat hayotiga ham ta’sirini o’tkazadi. Sababi yoshlarning qanday g’oya ostidagi axborotlardan foydalanishi va uni targ’ib etishi shu millatning kelajagiga ham ta’sirini o’tkazadi. Texnik moslamalar va internetga kirish imkoniyati taqdim etilar ekan, mediadan xavfsiz va to’g’ri foydalanish bo’yicha qo’llanma ham berilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Медиа ва ахборот саводхонлигини шакллантиришнинг педагогик жиҳатлари. Ўқув-амалий қўлланма. - Т.: Extremum-press, 2017.
2. Информационная культура личности: учебно-методическое пособие. - М.: Либерей-Бибинформ, 2007
3. Azimova, O. A. Q. (2023). Bo’lajak o’qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonlarida kasbiy mahorati. Science and Education, 4(6), 718-722.

ЗНАЧЕНИЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Гайбуллаева Ойрухсор Илёсхон кизи,

Наманганский государственный педагогический институт, 1-курс магистрант

Аннотация. В данной статье рассматриваются понятие инклюзивного образования, значение его внедрения в дошкольных образовательных организациях, а также проблемы и пути их решения. Цель инклюзивного образования – обеспечить равные условия для всех воспитанников включая детей с ограниченными возможностями, доступ к качественному обучению.

Ключевые слова: дошкольная образовательная организация, инклюзивное образование, воспитанники, дети с ограниченными возможностями здоровья

THE IMPORTANCE OF INCLUSIVE EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANISATIONS

Gaybullayeva Oyruxsor Ilyoskhon kizi

Namangan State Pedagogical Institute, 1st year master’s student

Annotation. This article examines the concept of inclusive education, the importance of its implementation in preschool educational institutions, as well as the problems and solutions. The goal of inclusive education is to ensure equal conditions for all students, including children with disabilities, and access to quality education.